

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.I.Nurmurodova	
Texnika oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uni tashkil etilishi	439
R.N.Nazimov	
Pedagogik texnologiyalar va xorijiy tajribalarning xorij ta'limidagi ahamiyati va uni O'zbekistonda amalga oshirish asoslari	445
D.A.Raximjonova	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari.	448
N.Sh.Mamadov	
Amir Temur faoliyatining yoshlarni ma'naviy kamol toptirishdagi roli	453
N.D.Djalilova	
Talabalar kommunikativ kompetentsiyani takomillashtirish videomateriallari	456
A.U.G'ofurov	
Sport turizmini rivojlantirishning tashkiliy va ijtimoiy-pedagogik asoslari	461
O.T.Karimov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov	
Organik kislota tuzlari bilan modifikatsiyalangan polietilenni termik xususiyatlarini tadqiq etish	467
R.N.Muminova	
Madaniy o'simliklarni etishtirishda xlorelladan foydalanish	470
A.E.Axtyamov	
Reklama matnlarining pragmatik tahlilida tekstuallikning yettita mezonlari	474
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	477
F.Yuldashev	
Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi	481
Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov	
In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish.	486
S.H.Po'latov	
Abu Homid al-G'azzoliy va Ibn al-Arabiy diniy-falsafiy qarashlarida tasavvuf ta'limotining rivojlanishi	490
H.A.Sulaymonov	
Xorijiy tillar grammatikasini o'qitishning umumnazariy masalalari xususida	494
N.T.Mirzaxolov	
Sun'iy intellekt – fan-texnika taraqqiyotining yuksak bosqichi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)	498
G'.B.Samatov, S.Mo'minjonov	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash	502
R.Batirov	
Chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlarini rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalari	508
G.Kozlova	
Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni, ta'lim standartlari va tamoyillarini amalga oshirish zarurati	512
V.Isafov, X.Qoraboyev	
<i>Indigofera tinctoria</i> o'simligi va tuproqdagi makroelementlarning o'zgarishi.	515
R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Salomatlik konseptining lingvomadaniy talqini.....	521
A.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	526
N.R.Zakirova	
Ta'limda yangi texnologiyalarning ustunliklari.....	532
I.Sharofutdinov	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida	535

TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOY ZARURAT SIFATIDA

РАЗВИТИЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАТИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ КАК СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

DEVELOPMENT OF ACMEOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PEDAGOGUES IN THE CONDITIONS OF INFORMATIZATION OF EDUCATION AS A SOCIAL NECESSITY

Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o'g'li¹

¹Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik pozitsiyalarini shakllantirish orqali ularni o'quv jarayonidagi faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otishga, jamiyadagi turli islohotlarni rivojlantirish to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье высказаны мнения о формировании акмеологических позиций будущих педагогов в высших учебных заведениях, повышении их активности в образовательном процессе, пробуждении чувства ответственности за избранную профессию, разработке различных реформ в обществе.

Abstract

In this article, opinions on the formation of acmeological positions of future teachers in higher education institutions, to increase their activity in the educational process, to awaken a sense of responsibility for their chosen profession, and to develop various reforms in society.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta'lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, raqamli iqtisodiyot, akmeologik pozitsiya, innovation va raqamli, bozor iqtisodiyoti, Ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: социально-экономическое, самостоятельное образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, цифровая экономика, акмеологическая позиция, инновационно-цифровая, рыночная экономика, образование и обучение, научно-методическая.

Key words: socio-economic, independent education, modern outlook, social necessity, digital economy, acmeological position, innovative and digital, market economy, Education and training, scientific-methodical.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakamizda oliy ta'lim islohotlari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu siyosatga muvofiq talabalarning kontingentini oshirish va oliy ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish, ta'limning sifatini yaxshilash, mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarishning jahon standartlariga asosan ta'limda sifatli boshqaruv usullarini samarali qo'llash; zamonaviy globallashuv sharoitida innovatsiyalarni qo'llash asosida ta'lim tizimi sifatini oshirish va kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarini samarali innovation strategiyalar yo'nalishlarini ishlab chiqish; fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida aloqalarni mustahkamlash; talaba-yoshlarni internetdan, elektron adabiyotlardan ko'proq foydalanishini yo'lga qo'yish; ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etib borish, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda zamonaviy darslarni o'tkazishini ta'minlash bilan bog'liq masalalar bugungi anjumanimizda hal qilinmoqda.

Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalardagi islohatlarning borishi ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki, har bir jabhaning taraqqiyoti o'sha soha mutaxassislarining bilimi, tafakkuri va malakasi, dunyodagi shu yo'nalishning rivojlanish tendensiyalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan olganda, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining bosh vazifasi ana shunday ko'nikmalarga va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ekanligini inobatga olib, bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida innovation ta'lim va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifasi ilgari surilmoqda. Buning uchun esa, raqamli iqtisodiyotning tegishli innovation texnologiyalaridan samarali foydalanish, ular orqali professor-

o'qituvchilar va talabalar o'rtasida bevosita onlayn muloqot qilishni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ta'lim bilan qamrab olishni talab etadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori qabul qilindi.[1] Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bu, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, «Besh tashabbus» loyihasini amalga oshirish doirasida 2022 yilga qadar respublikamizning barcha hududlarida raqamli bilimlarga asoslangan o'qitish markazlarini ochishdir. Jahon miqyosida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchi-larning akmeologik qobiliyatini tarkib toptirish, kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlan-tirishning didaktik tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratil-moqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga innovasion texnologiyalarini keng joriy etish, akmeologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini samarali tashkil etish orqali bilish faolligini oshirish muhim o'rin egallamoqda. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning ta'limiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ o'ziga xoslik sifatida kompetensiyaviy yondashuv bilan kredit-modul tizimining o'zaro uyg'unligini ta'minlash alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoda kredit-modul tizimini joriy etishda innovasion texnologiya-laridan foydalanishning maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish, talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash, tayanch kompetensiyalar natijasi sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlan-tirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonini akmeologik ta'lim muhiti bilan integrativligini ta'minlash, talabalarda o'z-o'zini kasbiy-pedagogik takomillashtirish istagini qaror toptirish, mustaqil kasbiy-pedagogik bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini, kreativlik, yangi pedagogik qadriyatlarni o'zlashtirishga qobiliyatlilikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim ustuvorlik kasb etmoqda.[2:140-141]

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan (yangi tahriridagi) O'zbekiston Respublikasi Ta'lim To'g'risidagi Qonunning 5 bob 44-moddasi Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi bo'lib, unga ko'ra: Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Barchamizga ma'lumki oliy ta'lim muassasalarining bosh maqsadi –bilimli, ma'naviy yetuk, intellektual salohiyati, raqobatbardosh, tashabbuskor, o'z shaxsiy pozitsiyasiga ega kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Zero jamiyatimizning taraqqiy etishi, yuksalishi o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarining salohiyati va iqtidoriga bog'liqdir. Pedagogika o'quv yurtlarida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, ularning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirib, o'quv faoliyati jarayonida kasbga bo'lgan qiziqishini orttirib borish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Globallashuv davrida fan va texnologiyalar rivojlanish cho'qqisiga chiqar ekan, «barkamol avlod», «akmeshaxs» kabi tushunchalar ilmiy muomalaga kirib keldi. Buning asosiy sababi — insonning intellektual qobiliyati zamon va makon bilan chambarchas bog'liq bo'lib, fan va texnologiyalar rivojiga qarab mukammallashib boradi va nhoyat o'z «akme»siga erishadi.

Akmeologiyaning eng muhim jihati — yuksak kasbkorlikning ijodiy pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganuvchi inson muammolari bilan shug'ullanuvchi insonshunoslik fanidan ajrab chiqqan muhim zamonaviy tarmoq bo'lib, insonning kasb-hunani bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy-axloqiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar, ayniqsa, insonshunoslik bilan uyg'unlikda o'rganishdan iboratdir.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, kompetentlik ma'lum bir shaxsiy, integral xususiyat, simptomlar majmuasi, kompetensiya esa o'ziga xos kasbiy va funksional xususiyatlar to'plamidir. Boshqa

ma'lumotlarga ko'ra, kompetetlik asosan bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar yig'indisi sifatida, kompetensiya esa tajriba, tayyorgarlik, savodxonlik va kasbiy harakatlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida tushuniladi. Psixologik-pedagogik asarlarda ushbu tushunchalar hal etilayotgan tadqiqot muammolariga tatbiq etishda turli tadqiqot pozitsiyalarining mavjudligi va ko'pincha tadqiqotda ontologik va tizimli yondashuvlardan foydalanilmasligi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixolog B.G.Ananey «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetroqda» esa, insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin», deydi. Albatta, bu jarayonlarning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g'oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, o'smirlik va yetuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo'la olmaydi, degan nazariyalar ham yo'q emas. Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal yetukligi bo'lmog'i lozim (A.A.Bodalyov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar), degan qat'iy konsepsiya yuzaga keldi.

Maksimal yetuklik individ, shaxs rivojining cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, demak ana shu cho'qqi yunonchada «akme» deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi. Shu bilan birga, «akme»da insonning faoliyati bilan bog'liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga yaqin jarayonlar, ya'ni biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari (N. VKuzmina).

Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning «akme» kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» — bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni o'rab turganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtoq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgara olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir.[3]

Akmeologiyaning tadqiqot ob'yekti — bu akmeshaxs bo'lib, ob'yektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasbkorlikning va ijodiy faoliyatning metodologik, texnologik hamda gumanitar (insonparvarlik) jihatlarini o'rganish jarayonida jamiyat rivojida kasb-hunar moddiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlarini bilan bog'liq akmeologik muammolarni aniqlaydi. Masalan, bozor munosabatlarining rivojlanishida yangi kasbhunarlarni shakllantirish, davr talabiga monand yetuk kadrlarni yetishtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Globalizasiya jarayonlariga ijodiy kompleks yondashish, kasbkorlik madaniyati, komillik va mukammallik haqida alloma va mutafakkirlarning qarashlarini tahlil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos jihatlarini va zamonaviy tajribalarni chuqur egallash, texnika, texnologiya va axborot madaniyatini o'zlashtirish masalalari ham akmeologiyaning ob'yektlaridan biriga aylanishi mumkin.

Akmeologiyaning tadqiqot predmeti — akmeshaxsni shakllantirishda ishtirok etadigan kasbiy bilimlar majmuyi bilan axloqiy fazilatlar hamda siyosiy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy institutlar bilimlari orasidagi funksional aloqadorlik bo'lib, muayyan ilm sohasi, majmuning jabha yoki xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Shunday qilib, akmeologiya predmetini insonni yetuklik darajasidagi rivoji bilan chegaralab qo'yish va u o'z rivojida qaysi sharoitlarda optimumga erishadi va uning optimumi qanday bo'ladi deyishni aniqlash bilan bir qatorda, uning predmetini juda keng tushunish kerak bo'ladi. Bunga turli umumlashmalarning rivoji va ularning rivojida eng yuqori darajaga erishishga imkon yaratuvchi sharoitlarni aniqlash hamda ushbu fanda bazaviy kategoriya sifatida akmening chiqishi va shakllarining keng kontinuumda konkretlashtirishi har bir holatda u yoki bu inson rivojida erishgan cho'qqining belgilarini konkret integrallashtirilishi va ob'yektivlashtirilishi yoki turli jamoalarning rivojlanishlarida erishilgan cho'qqida akkumulyasiya qilinishi namoyonligi o'z ifodasini topadi.[4:140]

NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobat bo'lib, u insonni doimo yuksaklik, komillikka, barkamollikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o'zaro dialektik munosabatlarini shakllanishiga olib keladi. Akmeologiya inson kasbiy faoliyati doirasidagi professionallik va ijodiylikning akme shaklining rivojlanishi uchun

zarur qonuniyatlarni o'rganuvchi fan bo'lgani uchun «akmeologiya» atamasining mazmuni, mohiyati insonshunos olimlar tomonidan turli bahs va munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Buning boisi, birinchidan, akmeologiya sohasida ilk davrlarda asosan pedagoglar, psixologlar tomonidan chop etilgan ilmiy asarlar, etika ixtisosligi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari fanning yoki bu jihatlarinigina qamrab olganligi sababli ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqardi.[5:145]

Bugungi kungacha akmeologiya sohasida olib borilgan tadqiqot ishlari shaxsning psixologik xaritasi, uning xarakter xususiyatlarini aniqlash hamda uning u yoki bu sohaga qiziqishini alohida o'rganishga qaratilgan.

Ikkinchidan, akmeologiyaning tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak takomiliga erishishi, insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi hamda bundanda yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasini o'rganishi, ya'ni biron kasbga, sohaga astoydil mehr qoyib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashini bildirishi hamda akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» iborasi ekanligining fanlar integratsiyasi kesimida kompleks o'rganilmaganligidir. Shu bois ham fikrimizcha, akmeologiyani faqat shaxs kasbiy faoliyatining psixologik va pedagogik jihatlarini tadqiq etish inson resurslarining barcha imkoniyatlarini kompleks tarzda o'rganish yo'lida yetarli emasligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

B.G.Ananevning fikriga ko'ra, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetroqda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin».[6:366] Va bularning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g'oyaning maxsus fundamental ishlab ehiqarilgan, o'smirlik va yetuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo'la olmaydi. Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal yetukligi bo'lmog'i lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirib, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish eng muhim masalalardan biridir.

Bo'lajak o'qituvchida pedagoglik kasbiga va bolalarga hurmat, muhabbat hissini tarbiyalash, ularni sevishtirish tuyg'usini o'stirish pedagogika o'quv yurtlarining muhim vazifasidir. Pedagogika o'quv yurtlari bu sohada katta imkoniyatlarga ham ega.[7:45] Bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik pozitsiyalarini shakllantirish albatta pedagog xodimlardan katta mahorat va tajribani talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida yangi ta'lim standartlari doirasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bugungi kunda har-bir professor-o'qituvchidan talabning iqtidori, va ijodiy salohiyatini to'la namoyon etish va taraqqiyotini ta'minlovchi har bir omilning o'rnini ko'rsata bilishni taqazo etadi. Bu yangicha ta'limdagi innovatsion yondashuvlardan biridir. Har bir talaba o'z shaxsiy akmesini aniqlab olishi uchun unda o'sha tanlagan ixtisosligiga nisbatan kuchli undovchi motivlar, hayotda esa muvofaqiyatlarga erishish motivi yoki yutuqlarga erishish ehtiyoji kuchli rivojlangan bo'lishi lozim.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yanalishi mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa pedagog kadrlar tayyorlash, modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish, zaruratini yuzaga keltiradi. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirib borishning asosiy mazmuni ularda kasbiy tayyorgarlikni shakllantirib borilishidir.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev o'g'itlari asosida mamlakatimizda keng miqyosda professional kadrlar tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Bu ko'rsatma nafaqat davlat rahbariyati xodimlari, balki fuqarolik jamiyatining barcha institutlari, olimlar, nodavlat, notijorat tashkilotlar, o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari, oilalar oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi.

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobat bo'lib, u insonni doimo yuksaklik, komillikka, barkamollikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o'zaro dialektik munosabatlarining shakllanishiga olib keladi. Demak, keskin raqobat sharoitida muntazam o'sib borayotgan aholini boqishni faqatgina bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish orqaligina amalga oshirish mumkin. Bilimga asoslangan iqtisodiyotni piramida shaklida ko'rsatsa bo'ladi. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) uning negizida fan va ta'lim yotishini ko'rsatgan. Lekin fan va talimni kim yaratadi? Agar ota-onalar jamiyatga sog'lom va

qobiliyatli shogird va o'quvchilarni yaratib bersalar, ularga innovator olimlar, injener texniklar va professor o'qituvchilar ta'lim beradilar.

Akmeologiya insonning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadiga muvofiq bosqichma-bosqich, dastlabki, o'rta va keyingi yetukligida individ sifatida (murakkab tirik organizm sifatida), shaxs sifatida (bu holda voqelikning turli tomonlarga bo'lgan munosabatlarini inson tomonidan o'zlashtirishi nazarga olinadi) va faoliyat sub'yekti sifatidagi (asosan professional sifatida) inson sifatida yuzaga kelish fenomenologiyasi, qonuniyatlarining mexanizmlarini aniqlab beradi.

Kasbiy tayyorgarlik – zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmay balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi, kasbiy sifatlarining qaror topishi hamda kasbiy moslashish darajasi bilan izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, m'naviy-axloqiy sifatlarini o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan ham bog'liqdir.

MUHOKAMA

Darhaqiqat, mazkur masalalarni hal etish respublikamizdagi mavjud ta'lim tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish orqali yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish maqsadini nazarda tutadi. Shunday ekan, barkamol shaxsni tarbiyalash, uni mutaxassis sifatida shakllantirish, jamiyatda munosib kasbiy-ijtimoiy mavqega ega bo'lishida oliy ta'limi muassasalarining o'rni katta. Oliy ta'lim muassasalarining pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqib, tadqiqot doirasida quyidagi pedagogik psixologik shart-sharoitlarning ta'minlanishi bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsyani shakllanib borishiga xizmat qilishi aniqlandi:

- axborotli-mazmunli sharoit;
- texnologik sharoit;
- refleksiv sharoit;
- ijtimoiy muhit.[8:198-201]

1. Axborotli-mazmunli sharoit. Bunda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari, ma'ruza matnlari, o'qitish texnologiyalari asosidagi o'quvmetodik majmua va elektron darsliklar, nazorat vositalari: ijodiy pedagogik topshiriqlar, vaziyatli masalalar, ijodiy loyiha ishlari, mutaxassislik yo'nalishlari bilan bog'langan kurs va mustaqil ta'lim alohida o'rin tutadi.

2. Texnologik sharoit. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun faoliyatning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish uchun texnologik yondashuv asos qilib olinishi lozim. Bunda talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirish jarayonida: muammoli o'qitish, o'yinli texnologiyalar (rolli ishbilarmon o'yinlar, tadbirkorlik o'yinlari, sosiodrama), trening, videotreninglar, muammoli-seminarlar, pedagogik muammoli vaziyatlarni yechish va tahlil qilish, "Keys-stadi", kichik guruhlarda o'qitish, mikrodarslar, ijodiy-tadqiqotchilik metodlari, tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash metodlari, autotrening mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasining ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

3. Refleksiv sharoit: Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan refleksiv sharoit mazmuni quyidagicha belgilanishi lozim: faol bilish motivasiyasini rivojlantirish; pedagogik faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat tizimini qaror toptirish; kreativ yoki ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish; pedagogik-psixologik metodik bilimlarni shakllantirish; refleksiv tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilish; o'z-o'zini kasbiy anglash va boshqalar.[9:48]

4. Ijtimoiy muhit — shaxsning ongi va faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar yig'indisidir. «Ijtimoiy muhit» tushunchasi haqida mualliflarining turli, ayrim hollarda, hatto bir-biriga qarama-qarshi ta'riflari uchraydi. Masalan, ijtimoiy muhit kategoriyasining mohiyati haqida ayrim mualliflar uni insonning atrofini o'rab tuvchi «ikkinchi olam» sifatida qarasalar, ikkinchi bir guruh olimlar «jamoaning ruhiy holati» deyilar, uchinchi esa «moddiy olam», yana birlari esa «insonning ongiga ta'sir etuvchi xolodayn» deb e'tirof etadilar.[10:148] Bunday qarama-qarshi fikrlarning yuzaga kelishining asosiy sababi shuki, ko'pchilik mualliflar «ijtimoiy muhit» kategoriyasiga mantiqiy ta'rif berish o'rniga, uning u yoki bu sifatini alohida ko'rsatish bilan cheklanadilar.

Akmesaxs taraqqiyotida ishtirok etuvchi ijtimoiy muhit oddiy odamning muhitidan o'zining tolerantligi bilan farq qiladi. Bu nima degani? Bu shuki, akmesaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida hamkorining irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar u bilan sog'lom raqobat muhitida faoliyat olib boradi va atrofdagilari bilan do'stona munosabat o'rnatadi.

Bugungi XXI asr avlodi har jihatdan bilimdon, aqlli, qobiliyatli, odobli, har qanday murakkab vazifalarni bajarishga qodir bo'la oladi, deb ishonch va g'urur bilan e'tirof etadilar Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Xotira va qadrlash kuni Prezidentimiz yoshlar salohiyati, shijoati, qobiliyatini yuksak baholab, ota-bobolar boshlagan ishlarni, ezgu maqsadlarga erishish uchun munosib farzand bo'la olishlariga, jamiyat rivojida salmoqli o'rin egallashlariga yuksak ishonch bildirdilar. Kelajagimiz egasi yoshlarimiz har jihatdan bilimli, axloqiy yetuk, shaxs sifatida mukammal, zamonaviy texnika va texnologiyani chuqur egallagan mutaxassis bo'lishlari uchun hamma imkoniyatlar mavjud.

XULOSA

Akmesaxs shakllanishining omillaridan yana biri — bu sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasidir. Inson salomatligini yaxshilash tabiiy muhit bilan bir qatorda ijtimoiy muhitning holati bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, inson sog'lig'i davlat mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham insonning biososial salomatligini asrash yo'li orqali ijtimoiy muhit hoiyatini mo'tadil saqlashga intilish, shular asosida akmesaxslarni shakllantirish imkoniyatini qo'lga kiritish davlat ahamiyatiga molik vazifalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik pozitsiyalarini shakllantirish orqali ularni o'quv jarayonidagi faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otishga, jamiyadagi turli islohotlarga o'z munosabatini bildirish olishiga va eng asosiysi o'z taraqqiyoti bosqichida ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lishiga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Структура ИКТ–компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. – Гамбург, 2011. URL: <http://ru.iite.unesco.org/publications/3214694>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 28.04.2020 йилдаги ПҚ-4699-сон. <https://lex.uz/docs/4800657>
3. Хакимова М.Ф. Ахборот таълим муҳитида инновация ва рақамли технологияларнинг жорий этилиши. Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. Scientific Library of Uzbekistan. – B. 149-153. www.ares.uz
4. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. – Тошкент, 2019. – Б. 117.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagob kabi muqaddasdir. T.3. — T.: «O'zbekiston», 1996. —B. 34.
6. Зимняя, И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. Высшее образование. – 2003. – № 5. – С. 34–42.
7. Tillayeva G.H. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. — T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. – B. 149.
8. Shayxova X.A. Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi. — T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009. – B. 115.
9. <https://uza.uz/uz/posts/Тараққиётга илм-фан ва салоҳиятли кадрлар билан эришилади>.